



“Alisher Navoiy va XXI asr”

9-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Bursa, 2024-yil 8-fevral

“Ali Şir Nevai ve 21. yüzyıl”

9. ULUSLARARASI KONFERANSI

Taşkent-Bursa, 8 Şubat 2024

“Alisher Navo'i and the 21st century”

9th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Bursa, February 8, 2024



نويزىت بولغاى پىرىدى رەھىم
كەرىشىپ يوق شاندىن
كەم كەم ئەسلىقى قىدىن جىرىپ
كەم كەم ئەسلىقى قىدىن جىرىپ

ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB” ASARI TURKIYALIK NAVOIYSHUNOS VOHID TURK TALQINIDA

Abdumurod TILAVOV

filologiya fanlari nomzodi,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO ‘TAU dotsenti

DOI: 10.52773/tsuull.navoiyconf.2024/WCHQ8741

Annotatsiya. Hazrat Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari olam va odam, hayot va o‘lim, komillik sirlari haqidagi qomusiy, ma’rifiy asardir. Mazkur maqolada ushbu nodir asarning professor Vohid Turk tomonidan amalga oshirilgan o‘girmasi haqida to‘xtalinadi. Olimning ushbu asarni turk o‘quvchilariga yetkazishdagi usuli, yutuq, tajribalari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, “Mahbub ul-qulub”, Vohid Turk, jamiyat, inson, komillik, ishq-muhabbat.*

Abstract. This article discusses the translation of Alisher Navo‘i’s remarkable work “Mahbub ul-Qulub” by Professor Vahid Turk, which provides a profound understanding of the universe, human nature, the meaning of life, death, and the pursuit of perfection. The article explores the methodology, accomplishments, and personal experiences of Professor Vahid Turk in bringing this rare work to Turkish readers.

Key words: *Ali-Shir Navai, “Mahbub ul-Qulub”, Vahid Turk, society, human, perfection, love.*

Navoiyshunos Shuhrat Sirojiddinov hazrat Mir Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari haqida shunday yozadi: “Hazrat Navoiy nafaqat ulug‘ mutafakkir, ulug‘ shoir, balki o‘z xalqi, millati taqdiriga befarq bo‘lmagan buyuk murabbiy ham edi. U o‘z umri intihosida ham millat va xalq dardi bilan yashadi. “Mahbub ul-qulub” asarida jamiyat bilan bog‘liq orzu-umidlarini ifodaladi. Unda jamiyat hayotini yuksaltirish, uni to‘g‘ri yo‘lga solish va shaxs ma’naviyatini tarbiyalash kabi o‘zining so‘nggi armonlarini vasiyat qilib qoldirdi” [Sirojiddinov Sh., 2018; 4]

Darhaqiqat, ushbu asar Navoiy fenomenini, uning bilim va salohiyatini namoyon etuvchi nodir asardir.

Turkiyalik zahmatkash navoiyshunos Vohid Turk “Turk dunyosi til va adabiyot” jurnalining (Türk Dünyası Dil ve edebiyat Dergisi) 2021-yil, 52-sonida e’lon qilgan “Turkiyada Alisher Navoiy borasidagi tadqiqotlar” (Türkiyede Ali Şair Nevai Çalışmaları) maqolasida juda muhim va dolzarb muammoni ilgari surgan edi:

“Quyida o‘zingiz guvohi bo‘lasizki (olim Turkiyadagi mavzuga doir ish ko‘lamini nazarda tutgan. – A.T.), Alisher Navoiyning deyarli barcha asarlari bitiruv ishlari va nomzodlik dissertatsiyasi o‘laroq tadqiq etilgan va bularning aksariyati kitob holida chop etilgan. Ikki risolasi – “Holoti Sayyid Hasan Ardashev” va “Holoti Pahlavon Muhammad” maqola tarzida e’lon qilingan. “Mahbub ul-qulub”dan boshqa barcha asarlarining matni nashr etilgan, biroq, afsuslar bo‘lsinki, **katta ehtiyoj bo‘lgan** (Ta’kid bizdan. – A.T.) bu durdonalarning Turkiya turkchasiga o‘girilishi ishlari ayni maromda amalga oshmagan. Bu asarlarning Turkiya turkchasiga o‘girilishi farqli metod va uslubga mansub olimlarning bu asarlar ustida tadqiqot olib borishlarini ta’minlaydi va butun madaniyat tariximiz diqqatga olinganda, yoniga ikkinchi bir kimsani qo‘yishga qiynalganimiz bu buyuk olim va mutafakkirni turli jihatlari ila xalqimizga tanitilishining yo‘li ochilajakdir”.

Vohid Turkni “Mahbub ul-qulub”ni turk o‘quvchilariga hozirgi zamon turk tiliga o‘girib taqdim etishga boshlagan narsa ana shu ehtiyoj va zaruriyatdir nazarimizda.

O‘rni kelganda shuni ham qo‘sishimcha qilish mumkinki, Hazrat Navoiyning asarlarini tabdil qilib qayta-qayta nashr etish diqqatga sazovor, biroq bu asarlar zaminidagi ma’no javohirlarini hozirgi avlodga ular tushunishi oson til va uslubda yetkazish yanada ahamiyatlari va manfaatliroqdir.

Endi Vohid Turk tomonidan nashrga tayyorlangan “Mahbub ul-qulub” ning o‘ziga xos xususiyatlari haqida to‘xtalamiz.

Shuni mammuniyat va minnatdorchilik bilan e’tirof etish kerakki, bu borada qardosh Turkiyada salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Professor Vohid Turkning ma’lumot berishicha, hozirgacha Turkiyada hazrat Alisher Navoiy ijodi bo‘yicha 26 nomzodlik, 18 doktorlik dissertatsiyasi yoqlangan, 281 ta maqola e’lon qilingan. Qomuslardagi mavzuga doir manbalarning soni 11 ta. O‘zbek va qardosh tillardan 19, g‘arb tillaridan 10 maqola tarjimasi e’lon qilingan. Ilmiy anjumanlardagi ma’ruzalar 48 ta. Alisher Navoiy asarlarining kitob holidagi nashrlari 57 ta. Shuningdek, Oybekning “Navoiy” romani, V.B.Bartoldning “Mir Alisher va turkman xalqining tarixi” asarlari ham turkchaga tarjima qilingan.

Ushbu ma’lumotlar 2021-yil apreldagi holat ekani inobatga olinsa, bu ro‘yxat yanada boyigani shubhasizdir.

Vohid Turk ilmiy faoliyatining asosiy qismini Hazrat Alisher Navoiy ijodiga bag‘ishlagan, deyish mumkin. Muhtaram olim Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”, “Munshaot”, “Arba’in”, “Nazmul javohir”, “Sirojul – muslimiyn”, “Vaqfiya”, “Nasoyimul muhabbat” asarlarini nafaqat nashrga tayyorladi, balki hozirgi zamon turk tiliga tabdil ham etdi. Shubhasiz, bu juda katta ilmiy, ijodiy mehnat samarasidir. Hazrat Navoiyga, uning ijodiga muhabbat mevasidir. Hazrat Navoiyning ushbu nasihat – vasiyat baytlariga samimiy sadoqat ifodasidir:

Ey, Navoiy, ishq atvorini hifz aylay degan,

Barcha ishni tark etib qilsun bizing devonni hifz. (Navoiy. 2020; 431.)

Kitob hazrat Alisher Navoiyning muxtasar tarjimai hollari bilan boshlangan. Shoiring chinakam so‘z san’atkori, ayni paytda davlat odami sifatidagi noyob qobiliyati haqida to‘xtalib, Husayn Boyqaroning Hazrat Navoiy ta’rifida “Ruknus-saltana” (saltanatning poydevori), “Umdatul mamlaka” (mamlakat madori), “Aduddu-davlatil-hoqoniy” (Hoqon davlatining yordamchisi), “Muqarradul-hazratis-sultoniy” (Podshohning do’sti), “Nizomud-diyn Amir Alisher Navoiy shafqatli qalbi ila bu yuksak davlat quyoshining tulun (chiqishi) zamonidan beri pokiza niyatli fikrini va buyuk qudrat va g‘ayratini bu davlatning yuksalishi uchun sarf etganligi bejizga emasligini ta’kidlaydi.

Muqaddimada Vohid Turk Zigid Kleinmechelning Usmonli she’riyatida Chig‘atoycha she’r yozish an’anasi bilxossa Navoiyning forschadek buyuk madaniyat tili qarshisida Chig‘ato turkchasi ila kuchli asarlar yozganligi ta’siridan ekanligi shubhasizdir, mazmunidagi fikriga odob doirasida mulohaza bildirib shunday deydi: “Shu bilan birga bu an’ana uning-la boshlanmagan. Masalan, Ahmad-i Doiyning Chig‘atoycha bir “Iskandarnoma” yozganligi va bu munfarid (yagona) namunalar borligi ma’lum. Muhtamalan (ehtimol) 15 va 16-asrlarda Usmonli saroyi va shahzoda sanjoqlarida Hirot va Samarqand muzofotidan kelgan, Chig‘atoycha biluvchi olim va hunarmandlarning borligi keyingi kuchli ta’sirlar uchun uyg‘un zamin hozirlagan bo‘lsa kerak” (Vohid Turk, 2016; 3).

Olim Muqaddimani juda ajoyib usulda tugatadi:

“O‘zidan qariyb bir asr so‘ngra yozilgan bir tazkirada qayd etilgani kabi: “Biz faqirlar uning ta’rifi va tavsifi xususinda kalima topmoqdan ojizmiz”.

Muqaddimadan keyingi so‘z boshida Vohid Turk “butun hayotini Turk millatiga xizmat etishga bag‘ishlagan” Alisher Navoiyning shaxsiyati haqida mehr va samimiyat bilan yozadi va bir nuqtaga e’tibor qaratadi. Ma’lumki Alisher Navoiyning ko‘p asarlari muqaddimasida “Turklar ham

foydalansin, deb yozdim” (Türklerde yaralansın diye yazdım) jumlasini qo‘llagan. Vohid Turkning ta’kidlashicha “Turk adabiyoti tarixida bunday idrok, tafakkurga sohib ko‘p shaxsiyat yo‘q”.

Ushbu nashrning “Alisher Navoiy va “Mahbub ul-qulub” sarlavhasi ostidagi ma’lumotlar ham uzoq yillik ilmiy izlanishlarning sara xulosalaridir deyishimiz mumkin. Olim navoiyshunoslikdagi ayrim ilmiy bahs-munozaralar borasida ham o‘z fikrlarini bayon etadi. Jumladan Vohid Turk yozadi: “Alisher Navoiy 1476-yilda yozgan barcha asarlarida chuqrur hurmat-ehtirom ila tilga olgani – Fors adabiyotining buyuk ustozlaridan Mulla Abdurahmon Jomiyning irshodi ila Naqshbandiy tariqatiga bog‘landi” (14).

“Alisher Navoiy 1490-yilda davlatdagи vazifasini batamom tashladi va Boyqaroning nadimi o‘larоq qoldi. 1492-yilda murshidi Mulla Abdurahmon Jomiyning o‘limi unga qattiq ta’sir qildi va “Xamsatul mutahayyiriyn” nomli asarini yozdi” (15).

Vohid Turk “Mahbub ul-qulub” asarini “siyosatnoma-nasihatnoma” turiga mansub asar deya baholaydi. Asardagi tushkunlik, umidsizlik kayfiyatini o‘sha davrdagiadolatsizliklar, nohaqlıklarga guvoh bo‘lgan, yurtini ozod va obod ko‘rishni xohlagan, biroq bunga muyassar bo‘lmagan Alisher Navoiyning armonlari bilan bog‘laydi.

“Mahbub ul-qulub”ning Vohid Turk tayyorlagan nashrining yana bir xususiyati – asardagi oddiy o‘quvchiga tushunarsiz yoki tushunilishi murakkab so‘z va tushunchalarga matn ostida izoh berilganidir. Tasavvufiy atamalar mashhur tasavvufshunos Sulaymon Uludog‘ning “Tasavvuf atamalari lug‘ati” (Tasavvuf terimleri Sözlüğü)dan foydalangan holda keltiradi [Uludağ Süleyman, 2012].

“Kamol”, “Ahli kashf”, “Sidratun muntaho”, “Himmat”, “Futuvvat”, “Muruvvat”, “As’habi Kahf”, “Tavfiq”, “Ma’rifat”, “Siddiq”, “solik” kabi tushunchalarning izohi har bir o‘quvchi uchun bilishi lozim, ayniqsa, Navoiy aytmoqchi bo‘lgan o‘gitlarning mazmun-mohiyatini anglashga yordam beradi.

“Mahbub ul-qulub”da Hazrat Navoiyning Qur’on va hadis ilmi borasidagi salohiyati ham namoyon bo‘lgan. Chunonchi, mutafakkir ushbu asarida ham bir necha o‘rinda oyat va hadislarga ishora qiladi, ba’zan aynan keltirib, mumtoz adabiyotdagi iqtibos san’atining go‘zal namunalarini keltiradi. Vohid Turk bu borada ham o‘quvchiga yordam bo‘lishi uchun Navoiy nazarda tutgan oyat va hadislarning aniq ma’nosini ko‘rsatadi, Hazrat Navoiy arab tilida keltirgan iqtiboslarning turkcha ravon tarjimalarini taqdim etadi.

“Mahbub ul-qulub”dagi nazmiy parchalar tarjimasida Vohid Turk ikki xil yo‘l tanlagan. Ayrim she’riy parchalar turkchaga she’riy yo‘l bilan o‘girilgan, aksariyat nazmiy misralarning ma’no tarjimalari nasriy bayon etilgan.

Shuni aytish joizki, she’riy tarjimalar sodda, ravon, o‘quvchiga tushunarli uslubda. Ayrim misollarga murojaat qilamiz:

Nazm

*Gahe topdim falakdin notavonliq,
Gahe ko ‘rdum zamondin komronliq,
Base issiq, sovuq ko ‘rdum zamonda,
Base achchiq, chuchuk toptim jahonda.*

Nazm

*Bazen felekten zayıflık buldum,
Bazen zamandan mutluluk gördüm,
Çokça sıcak ve soğuk gördüm zamanda,
Çokça acı ve tatlı tattım cihanda.*

Ruboiy

Gardun gah menga jafo dunlig‘ qildi,

*Baxtim kibi har ishta zabunlig‘ qildi,
Gah kom sari rahnamunlig‘ qildi,
Alqissa: base buqalamunlig‘ qildi.*

Rubai

*Dünya bana bazen cefa ve alçakklik etti
Bahtim gibi her işimde zebunluk etti
Bazen arzularıma yol göstericilik etti
Velhasıl pek çok döneklik etti* (Nevayi, Ali Şir, 2016. 183).

Hazrat Navoiy asarning 97-tanbehida quyidagi baytni keltiradilar:

*Ilmdan oriy ulusning johili hudkomasi,
O‘rganurga jiddu jahd etgan jahon allomasi.*

Ya’ni ilmdan chetda qolgan odam – xalq orasidagi qaysar, johil, o‘rganishga qattiq kirishgan esa jahon allomasidir.

Vohid Turk tarjimasida ushbu baytning hozirgi turk tilidagi tarjimasi juda ravon, aniq berilgan:

“Bilgiden uzaklaşıkça milletlerin bencil cahilleri olunur: öğremmeyi isteyen ve çaba gösteren ise cihan bilgini olur” (Nevayi, Ali Şir, 2016. 126.)

“Mahbub ul-qulub”da Hazrat Navoiy kotiblar haqida so‘z yuritib, chiroyli yozish qobiliyatiga ega bo‘lib, xatosi bo‘lgan kotibni qattiq malomat qilgani, u noo‘rin nuqta qo‘yib “habib”ni “habiys”ga, muhabbatni mehnat-mashaqqatga aylantirishini eslatadi. Musannif xuddi shu o‘rinda muallif, ya’ni Alisher Navoiy arab yozuvidagi nuqtalarining ahamiyatiga diqqat qaratayotganini tagmatnda beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, turkiyalik muhtaram olim Vohid Turkning ushbu nashri navoiyshunoslikka qo‘shilgan ulkan hissa, Hazrat Navoiy ma’naviyati, ma’rifatini turk o‘quvchilariga yetkazish borasidagi qiymatli, tahsinga sazovor tadqiqotlardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy, Alisher. 2018. Mahbubul – qulub. – T.: Sano-standart. – B. 192.
2. Navoiy, Alisher. 2020. Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar. – T.: Sano-standart. – B. 522.
3. Nevayi, Ali Şir. 2016. - İstanbul: Ötüken. Hazırlayan Prof. Dr. Vahit Türk. – B. 144.
4. Vahit, Türk. 2021. Türkiyede Ali Şir Nevai çalışmaları. Ankara: Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi. 52.403-442.
5. Uludağ, Süleyman. 1991. – İstanbul: Marifet Yayınları. – B. 456.
6. Sirojiddinov, Shuhrat. 2020. Amir Alisher. – T.: Adabiyot. – B. 200.

**IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA
CHET ELLARDA O'RGANILISHI**
**IV OTURUM. ALI ŞİR NEVAÎ'NIN ESERLERİNİN YABANCI DILLERE ÇEVRİLMESİ
VE YURTDIŞINDA YAPILAN İNCELEMELER**
**PANEL IV. TRANSLATION OF WORKS OF ALISHER NAVOI'I INTO FOREIGN
LANGUAGES AND THEIR STUDY ABROAD**

Hamidulla DADABAYEV. Alisher Navoiy asarlarında eski o'zbek tili harbiy istilohları tiziminin ifodalanishi	424
Prof. Dr. Tanju SEYHAN. Ali Şir Nevâyî'de Akıl Kavramı ve Kullanım Alanları	430
Qosimjon SODIQOV. Alisher Navoiy asarlarında ishlatalıgan til bilimi atamaları	460
Prof. Dr. Zühal ÖLMEZ. Ali Şir Nevâyî'nin Eserlerinde Tanıklanan Çağatayca Söz Varlığı	470
Baxtiyor ABDUSHUKUROV. "Mahbub ul-qulub" asarıda qadimgi turkiy so'zlar	474
Dr. Farhad RAHİMİ. Ferağı'nın Çağatay Türkçesi Sözlüğündeki Eskicil Öğeler	479
Zulkumor XOLMANOVA. Alisher Navoiyning o'zbek tili so'z yasalishi taraqqiyotidagi xizmatları	498
Dr. Urak LAFASOV. Alisher Navoi - the Founder of Comparative Linguistics	503
Prof. Dr. Ali YAKICI. Ali Şir Nevâyi'nin Eğitim Dili Türkçe Olan Ülkelerin Orta öğretimindeki Yeri	508
Emre Berkan YENİ. Ali Şir Nevâyî'nin Divanlarındaki Duygu Sözcükleri	516
Олимджон КАСИМОВ, Нодирбек ЖУРАКУЗИЕВ. Лексика созидания в касыде «Ruh-al-quds» («Священный дух») Алишера Навои	523
Dr. Siyamek HÜSSEYNALİZADE (Ergin Avşar). Dîvânu Lugâti't-Türk ve Nevai eserlerinin söz varlığı	530
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarı turkiyalik navoiyshunos Vohid Turk talqinida	539
Muqaddas ABDURAHMANOVA. Alisher Navoiy ijodidagi omonimiyaning lingvokognitiv tahlili	543
Jo'ra XUDOYBERDIYEV. Alisher Navoiy asarlarındagi unli tovushlar tadqiqi haqida	548
Azizullah ARAL. Abdulhakim Shar'iy Juzjoniyining "Afg'onistonda navoiyshunoslik" nomli maqolasi haqida	555
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA. Hazrat Mir Alisher Navoiy ijodining Qozog'istonda o'rganilishi (Qozog'istondagi ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumta'lum maktablari misolida)	559
Mushtariy XOLMURADOVA. Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy ijodida qalam vasfi	564
Gulandom YULDASHEVA, Muqaddas SAIDAKBAROVA. Mariya Sabtelni: XV asr Hirot ijtimoiy muhiti	569
Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy lirikasini o'rganishda "Scaffolding" usulining ahamiyati	574
Oynisa HOJIEVA. Ali Şir Nevai'nin Eserlerinde Türk Halkları Atasözlerinin Yansimasi	581